



THE CONCEPT OF PERSONAL RIGHTS AND MEASURES TO IMPROVE THE MECHANISM OF ITS ENSURANCE

Sardor Odilov

*Independent researcher at the Higher School of Judges
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: human rights, personal rights, legal mechanism, judicial protection, lawyer's protection, ombudsman, presumption of innocence, international law.

Received: 08.08.25

Accepted: 09.08.25

Published: 10.08.25

Abstract: The article, along with revealing the concept of personal rights, its legal nature, scientifically analyzes the existing mechanisms for ensuring these rights and the need to strengthen them. The author studied foreign experience in the effective protection of personal rights and developed proposals for their improvement in the legal system of Uzbekistan.

SHAXSIY HUQUQLAR TUSHUNCHASI VA UNI TA'MINLASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH CHORA TADBIRLARI

Sardor Odilov

*Sudylar oliy maktabi mustaqil izlanuvchisi
Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: inson huquqlari, shaxsiy huquqlar, huquqiy mexanizm, sud himoyasi, advokat himoyasi, ombudsman, aybsizlik prezumpsiyasi, xalqaro huquq.

Annotasiya: Maqlada shaxsiy huquqlar tushunchasi, uning huquqiy tabiatini ochib berish bilan birga, ushbu huquqlarni ta'minlashning amaldagi mexanizmlari hamda ularni kuchaytirish zarurati ilmiy tahlil qilinadi. Muallif tomonidan shaxsiy huquqlarni samarali himoya qilish bo'yicha xorijiy tajriba o'rganilgan hamda O'zbekiston huquqiy tizimida ularni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

ПОНЯТИЕ ЛИЧНЫХ ПРАВ И МЕРЫ ПО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ МЕХАНИЗМА ИХ ОБЕСПЕЧЕНИЯ

Сардор Одилов

независимый исследователь Высшей школы судей

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: права человека, личные права, правовой механизм, судебная защита, адвокатская защита, омбудсмен, презумпция невиновности, международное право.

Аннотация: В статье, наряду с раскрытием понятия личных прав, их правовой природы, научно анализируются существующие механизмы обеспечения этих прав и необходимость их укрепления. Автором изучен зарубежный опыт эффективной защиты личных прав и разработаны предложения по их совершенствованию в правовой системе Узбекистана.

Kirish

Insoniya yaralabdiki u bilan birga uning ajralmas huquqlari ham mutanosib ravishda bo‘ladi, faqatgina uni huquq ekanligi keyinchalik rasmiy hujjatlarda namoyon bo‘lishni boshlagan. Qadamgi antik davrlarda davlatchilikning ilk shakillari paydo bo‘la boshlagan vaqtida ham insonning huquqlari bo‘lgan, faqat ular huquq sifatida shakllanmagan. Qadimgi Misr, Mesopotimiya, Rim kabi davlatlarda inson huquqlarini ta’minlashning ilk kurtaklari paydo bo‘la boshlagan, keyinchalik ushbu jarayon rivojlanib, inson, uning hayoti, huquq va erkinliklarini ta’minlash davlatning asosiy vazifalaridan biriga aylangan.

Fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari ustuvor huquq hisoblanadi va bu O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida birinchi o‘rinda berilganligidan ham ko‘rinadi. Shaxsiy huquqlar fuqarolarning hayoti, sog‘lig‘i, e’tiqodi bilan bog‘liqdir. Shaxsiy huquq va erkinliklar insonni shaxs sifatida namoyon etuvchi imkoniyatdir. Shaxsiy huquq va erkinliklarni, odatda, tabiiy huquqlar ham deb yuritiladi. Ular inson tug‘ilishi bilan vujudga keladi. Ularni davlat bermaydi aksincha faqat shu huquqlarni davlat ta’minlaydi va shunga majbur. Shaxsiy, ya’ni tabiiy huquqlar barcha mamlakatlarda mavjud va davlat tomonidan ta’minlanadi.

Tabiiy huquq g‘oyasi Yunoniston va qadimgi Rimda paydo bo‘lib, Sokrat, Aristotel, Sitseron, Ulpian va boshqa Rim yuristlarining nomlari bilan bog‘liqdir. O‘rta asrlarda ilohiyshunos Foma Akvinskiy uni rivojlantirdi. Biroq, bu g‘oyalar mustaqil ilmiy maktab va tabiiy huquqiy ta’limot sifatida 17-18-asr burjua inqiloblari arafasida shakllandı. Uning ko‘zga ko‘ringan namoyandalari: G. Grotsiy, T. Gobbs, J. Lokk, Volter, Sh.L. Monteskye, J.J. Russo, A.N.Radishchevlardir. O‘zbek xalqining Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobi, Amir Temur, Alisher Navoiy kabi ajdodlari ham huquqni tabiat yoxud Alloh tomonidan insonlarga berilgan imkoniyatlar majmui deb tushunganlar. Bugungi kunda esa shaxsiy huquqlar muhim xalqaro va milliy huquqning ajralmas qismi sifatida qaraladi. Insonning baxtli va erkin hayot kechirishi uchun eng zaruriy huquqlar majmuni bo`lib xizmat qiladi.

Asosiy qism

Shaxsiy huquq va erkinliklar xalqaro hujjatlar bilan ham himoya qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini ishlab chiqishda va qabul qilishda fuqarolarning shaxsiy huquqlari belgilangan xalqaro hujjatlar, jumladan, “Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi” qoidalariga amal qilindi. Natijada birinchi marta, Konstitutsiyada yashash huquqi qayd qilinib, bu huquqni ta’minlashni davlat o‘z zimmasiga oldi.

Shaxsiy huquq va erkinliklar, boshqa huquqlardan farq qilib, ularni cheklash mumkin emas. Alovida hollarda cheklash zarurati bo‘lsa, bu Konstitutsiya asosida, unda ko‘rsatilgan tartibda amalga oshiriladi. Ya’ni, bazi hollarda cheklash qonunga asosan amalga oshirilishi belgilangan. Lekin shunday huquqlar borki, ularni aslo cheklash, ulardan mahrum qilish mumkin emas. Masalan, yashash huquqi. Shaxsiy huquqlardan barcha shaxslar, fuqaroligidan qat’i nazar, foydalanadi va davlat ham barchaga, fuqaroligidan qat’i nazar, shaxsiy huquq va erkinliklardan foydalanishga imkon yaratadi. Konstitutsiyaga asosan shaxsiy huquq va erkinliklar bilan bog‘liq insonning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliv qadriyat hisoblanishi ham bu huquqlarning huquq va erkinliklar tizimida ustuvor hisoblanishiga olib keladi.

Insonning shaxsiy huquqlari demokratik jamiyatda asosiy ustuvor qadriyat hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyada belgilanishicha, inson huquq va erkinliklari davlat tomonidan kafolatlanadi va himoya qilinadi (Konstitutsiya, 13-modda). Jinoyat-protsessual, fuqarolik va ma’muriy sud ishlarini yuritishda shaxsiy huquqlarni to‘liq ta’minlash adolatli sudlovning kafolati sifatida qaraladi. Biroq amaliyotda ayrim holatlarda tergov va sud organlari faoliyatida insonning shaxsiy huquqlarini buzish holatlari uchrab turibdi, bu esa davlat organlariga bo‘lgan ishonchga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois, shaxsiy huquqlar tushunchasini nazariy jihatdan chuqr yoritish, ularni ta’minlash mexanizmlarini kuchaytirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish dolzarbdir.

Adabiyotlar tahlili

Shaxsiy huquqlar - bu insonning tabiiy, ajralmas huquqlari bo‘lib, ular insonning sha’ni, qadr-qimmati, erkinligi va daxlsizligini ta’minlashga xizmat qiladi. Bunga quyidagilar kiradi: yashash huquqi, shaxsiy daxlsizlik huquqi, yashash joyini erkin tanlash huquqi, erkin harakatlanish huquqi, shaxsiy hayot, aloqa, yozishmalar sirini himoya qilish huquqi, adolatli sud himoyasiga ega bo‘lish huquqi. Bu huquqlar xalqaro huquqiy hujjatlar bilan kafolatlanadi va davlatning ularni himoya qilish majburiyatini belgilaydi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham, “Asosiy qomusimiz kafili sifatida Konstitutsiya va qonunlarning talablarini so‘zsiz bajarish, “Inson qadri uchun” ustuvor tamoyilni to‘la ro‘yobga chiqarish bundan buyon ham faoliyatimizning bosh mezoni bo‘lib qoladi.... Inson qadri deganda,

biz har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta'minlashni nazarda tutamiz....”, deb ta'kidlagan.

2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan “Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi”ning birinchi muhim ustuvor yo'nalishi “Inson qadrini yuksaltirish

va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish” deb belgilanishi ham mamlakatimizda inson huquqlariga nechog'lik darajada ahamiyat berilayotganligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasida shaxsiy huquqlarni ta'minlashning quyidagi mexanizmlari mavjud:

Konstitutsiyaviy himoya;

- Sud himoyasi;
- Ombudsman instituti;
- Jinoyat-protsessual himoya;
- Xalqaro mexanizmlar.

Bu mexanizmlar inson huquqlarining buzilishining oldini olish va huquqiy himoyani ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan konstitutsiyaviy islohot natijasida 2023 yil 30 aprelda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyada shaxsning dahilsizligi va erkinligini konstitutsiyaviy darajada himoya qilish mexanizmi yaratildi.

Tadqiqot metodologiyasi

O'zbekiston Respublikasi sud-huquq tizimini yana ham isloh qilishdagi eng muhim qadamlardan biri bu shubhasiz, jinoyat, jinoyat-protsessual, jinoiy jazo tizimini bosqichma-bosqich liberallashtirish hisoblanadi. Bunda albatta, o'lim jazosini bekor qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Yashash huquqi barcha uchun berilgan eng oliv huquqlardan biri hisoblanib, uni konstitutsiya bilan mustahkamlab qo'yish demokratik, inson huquqlari va erkinliklari oliy darajada yo`lga qo`yilgan mexanizmning bir ko`rinishi desak ham adashmagan bo`lamiz. Respublikamiz konstitutsiyasining 26-moddada quyidagilar o`z aksini topgan: Insonning sha'ni va qadr-qimmati daxlsizdir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo'lishi mumkin emas. Hech kim qynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emas. Hech kimda uning rozilgisiz tibbiy va ilmiy tajribalar o'tkazilishi mumkin emas.

Inson huquqlarini ta'minlashda shaxsiy daxlsizlik huquqini alohida ta'kidlab o'tish lozim bo`ladi. Ushbu muhim jihat O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi 27-moddasida ham mustahkamlab qo`yilgan va shaxsiy daxlsizlik huquqi inson va fuqarolarning muhim ajralmas huquqi hisoblanadi. Ushbu moddada quyidagilar belgilab qo`yilgan: Har kim erkinlik va shaxsiy

daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonung asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emas. Hibsga olishga, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga ko‘ra yo‘l qo‘yiladi. Shaxs sudning qarorisiz qirq sakkiz soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emas. Shaxsni ushslash chog‘ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shart. Ushbu modda ayni paytda huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan inson va fuqarolar uchun qilinadigan muomila uslubini ham tartibga solishni taqozo qiladi. Moddada mustahkamlanganidek hibsga olish, qamoqqa olishga, qamoqda saqlashga faqat sudning qarori bilan yo‘l qo‘yiladi. Shaxslar esa qirq sakkiz soatdan ko`proq sudning qarorisiz ushlab turilishi mumkin emas. Bularning barchasi shaxslar uchun belgilab qo‘yilgan muhim erkinlik va huquq hisoblanadi.

Konstitutsiyaning 28-moddasida, jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs, uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo‘li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanishi, aybdorlikka oid barcha shuhbalar, agar ularni bartaraf qilish imkonni qolmagan bo‘lsa, gumon qilinuvchining ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerakligi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o‘zining aybsizligini isbotlashi shart emasligi, va istalgan vaqtida suket saqlash huquqidan foydalanishi mumkinligi belgilab qo‘yildi. Mazkur norma asosida Jinoyat protsessual kodeksida huquqiy tartibga solinishi bilan bir vaqtida nima sababdan, yana takroran Konstitutsiya matnida norma tariqasida takrorlanayotgani to‘g‘risida savol tug‘ilishi o‘rinlidir. Zero, fuqarolarning shaxsiy huquqlariga oid normalarning konstitutsiya darajasida mustahkamlanishi birinchidan, Konstitutsiyaning 15-moddasida mustahkamlanganidek, “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil qiladi, ikkinchidan Konstitutsiya sodda shaklda, barcha fuqarolar uchun tushunish oson yuridik tilda bayon qilingan hamda konstitutsiyani o‘quvchi auditoriyani ko‘pligi va keng omma o‘qishi uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ya’ni Jinoyat protsessual kodeksi aksariyat hollarda huquqshunoslar, sud, huquqni muxofaza qiluvchi organlar xodimlari tomonidan foydalaniladigan maxsus yuridik terminlar asosida bayon qilingani sababli, oddiy fuqarolar ushbu kodeksda normalarni o‘qigan taqdirda hamda mazmunini to‘liq tushunmasligi aniq shu sababdan ham ushbu normani asosiy qonun darajasiga ko‘tarildi.

Tahlil va natijalar

Bugungi kunda respublikamizda olib borilayotgan sud islohotlari natijasida, sudyalarining mustaqilligi, ularni faqat qonungagina bo‘ysunishi ta’milanmoqda, buni natijasida fuqarolar

tomonidan sudga, o‘z buzilgan huquqlarini tiklash mumkin bo‘lgan, adolat qaror topadigan maskan sifatida qarashдфк kengayib bormoqda.

Xususan, 2025-yil birinchi yarim yillik davomida respublika jinoyat ishlari bo‘yicha sudlar tomonidan 204 nafar shaxs oqlangan bo‘lib, ularga 20 mldr so‘m moddiy va ma’naviy zarar undirilgan. Sudlar tomonidan insonparvarlik aktlarini qo‘llash asosida 16.003 nafar shaxs jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan, 5.224 nafarining jazosi esa yengilrog‘iga almashtirilgan.

Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlar tomonidan nikoxdan ajratishga oid ko‘rilgan 32.455 ta da’vo arizalaridan 50 foizi yoki 17.191 tasi qanoatlantirilgan. Shu bilan birga 1.442 ta ish bo‘yicha taraflar yarashtirilganligi munosabati bilan oilalarni saqlab qolinishiga erishilgan.

Ish haqini undirish masalalari bo‘yicha jami 6.460 ta ish ko‘rilib, 5.179 ta yoki 80 foiz ish bo‘yicha talablar qanoatlantirilgan va xodimlar foydasiga 56,2 mldr. so‘mlik ish haqlari undirib berilgan. Voyaga yetmagan bolalar uchun aliment undirish masalalari bo‘yicha jami 39.853 ta ish ko‘rilib, 39.323 ta ish bo‘yicha talablar qanoatlantirilgan va voyaga yetmagan bolalarga aliment undirish haqida tegishli sud qarorlari qabul qilingan.

Iqtisodiy sudlar tomonidan tadbirdorlik sub’ektlari manfaatlarida 35.268 ta ish ko‘rilib, ular foydasiga 4,3 trln. so‘m miqdoridagi mablag‘larni undirish belgilangan.

Ma’muriy sudlar tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning ma’muriy organlar qarorlari va mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan berilgan shikoyatlar asosida ko‘rilgan 8.098 ta ommaviy nizoning 3.084 tasi yoki 38 foizi qanoatlantirilib, ularning qonun bilan qo‘riqlanadigan huquqlari tiklangan.

Fuqarolarning shaxsiy huquqlarini ta’minlashda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining inson huquqlari bo‘yicha vakili Ombudsmanning ham o‘z o‘rni bor albatta.

Ombudsmanga 2024-yil davomida jami 23.422 ta murojaat kelib tushgan bo‘lib, shulardan 2747 tasi maxsus qabulxonalar, vaqtincha saqlash hibsxonalari, tergov hibsxonalari, jazoni ijro etish muassasalari, intizomiy qismlar, majburiy davolash muassasalaridagi shaxslardan va ularning vakillaridan kelib tushgan.

Ombudsman tomonidan 2024-yilda harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan yopiq muassasalarga 902 marotaba monitoring tashriflar amalga oshirilgan bo‘lib, ushbu tashiflarda 10.000 dan ortiq mahkum bilan jamoaviy, 4835 nafar mahkumlar bilan yakka tartibdagi suhbatlar olib borilgan.

Murojaatlar tahlili hamda monitoring tashriflari yakuni bo‘yicha Parlament palatalariga 9 ta, Vazirlar mahkamasiga 5 ta tahliliy ma’lumot, davlat organlari va tashkilotlari hamda sudsiga taqdimnomalar, xulosa, da’vo arizasi, talaboma shaklidagi 182 ta ta’sir choralarini ko‘rilgan.

Murojaatlarni ko‘rib chiqish yakuniga ko‘ra, ombudsman tomonidan fuqarolar manfaatida jami 4,12 mlrd so‘mdan ortiq mablag‘lar undirilishi ta’minlangan.

Fuqarolarning shaxsiy huquqlarini ta’minlashda, jinoyat-protsessual mexanizmlarni ham o‘rnii katta hisoblanadi. Xususan, biror bir shaxsning jinoyat sodir qilishda gumanlanuvchi tariqasida jalg qilinishdan boshlab, to unga yakuniy sud hukmi chiqarilib, aybli deb topulgunga qadar bo‘lgan vaqt orqalig‘ida sodir bo‘ladigan barcha munosabatlar jinoyat-protsessual qonunchiligi doriasida tartibga solinadi.

Xulosa

Bu norma milliy qonunchiligmizda aks ettirilgan va u ishlayotgan bo‘lsa, uni mamlakat bosh qonunida aks ettirishga qanday zarurat bor edi degan savol tug‘ilishi mumkin. Afsuski, sud-tergov amaliyotida shunday holatlar ham uchraydiki, ayrim tergov xodimlari fuqarolarimiz o‘zining bunday huquqi borligini anglamasligidan foydalanib, o‘z qarindoshiga nisbatan guvohlik berish-bermaslik shaxsning mutlaqo erkinligi ekanligi va bu kabi guvohlik berishdan bosh tortish uchun jinoiy javobgarlik mavjud emasligini to‘liq tushuntirmaydilar. Natijada insonlarning mazkur huquqdan amalda real foydalanishida muammolar yuzaga keladi. Shaxsning o‘ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik bermaslik huquqi har qanday turdagи qynoqlar, tahdidlar va majburlov choralarini qo‘llashni cheklovchi instrument bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur qoidaning Konstitutsiya darajasida belgilanishi esa shaxsga kimningdir xohish-irodasi ob‘ekti sifatida munosabatda bo‘lishga yo‘l qo‘yilmasligini, uning shaxsiy hayot daxlsizligi esa chinakam konstitutsiyaviy kafolat ekanligini mustahkamlaydi. Yangi normalar tergov jarayonida fuqarolarning huquq-manfaatlari ta’minlanishiga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda fuqarolarning shaxsiy huquqlarini ta’minlash bo‘yicha yuqorida qayd etib o‘tilgan bir qancha ijobiy ishlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, lekin ushbu sohada xato va kamchiliklar ham yo‘q emas. Tahlil qilingan sud-huquq amaliyoti shuni ko‘rsatmoqdaki, ayrim hollarda advokat ishtiroki cheklanmoqda, sud qarorlari ijrosining kechikishi va tergov muddatlarining uzaytirilishi insonning erkinligini cheklash bilan bog‘liq muammolarni yuzaga keltirmoqda. Bu esa shaxsiy huquqlarni himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Ushbu kamchiliklarni bartaraf etishda bir qator xorijiy tajribalarni o‘rganib, ularni mamlakatimiz qonunchiligidagi joriy etilishi fuqarolarning shaxsiy huquqlarini ta’minlash sohasida yana bir muxim qadam bo‘ladi deb hisoblasak yanglishmagan bo‘lamiz.

Yuqorida kelgan malumotlardan shuni kichik xulosa qilib aytshimiz mumkinki, shaxsiy huquqlar inson hayotining muhim ajralmas huquqi bo‘lib har bir inson uchun davlat tomonidan kafolatlanishi belgilab qo‘yilgan va davlat uchn eng oliy maqsad esa o‘z fuqarolari huquqlari va erkinliklarini qonuniy himoya qilish etib belgilab qo‘yilgan. Shuni ham aytish lozimki, yangi

tahrirdagi konstitutsiyada xalqaro huquqning umume'tirof etgan normalari va prinsiplariga muvofiq holatda yangi normalarning kiritilishi inson huquqlari va erkinliklarining konstitutsiyaviy huquqiy mexanizmining muhim jihatidir.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023 yil 30 aprel
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi
3. N. Bobojonov. Jinoyat-protsessual huquq asoslari. Toshkent, 2023.
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Tabiiy_huquq
5. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz//<https://president.uz/uz/lists/> view/4743
6. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son
7. <http://www.sud.uz>
8. <https://ombudsman.uz>
9. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.01.2019y, 03/19/515/2472-son
10. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995 yil 31 avgustdag'i 127-I-sonli «1966 yil 16 dekabrdagi fuqaroviylar va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga qo'shilish haqida»gi qarori.
11. Miranda v. Arizona, AQSH Oliy sudi qarori, 1966.Germaniya Asosiy Qonuni, 2023-yilgi nashr.